



XXI ASRDA TIBBIYOT TURIZMI:

Barqaror modellar va
so'nggi amaliyotlar

III Xalqaro ilmiy–amaliy
konferensiyasi

2025-yil 10-12-noyabr



Kokand
University



AXBOROT XATI

Hurmatli hamkasblar!

Sizni "XXI asrda tibbiyot turizmi: barqaror modellar va so'nggi amaliyotlar" III Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasida ishtirok etishga taklif etamiz!

Konferensiya O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentyabrdagi **"O'zbekiston Respublikasida tibbiy va sog'lomlashtirish turizmini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"**gi PQ-335-son qarori ijrosi doirasida o'tkazilmoqda. Ushbu qaror O'zbekistonda tibbiy turizmni qo'llab-quvvatlash, xalqaro hamkorlikni kengaytirish, "yashil" texnologiyalarni joriy etish va tibbiy xizmatlarning barqaror modellarini shakllantirishga qaratilgan.

KONFERENSIYANING ASOSIY MAQSADLARI:

- Ilmiy, tibbiy va turistik hamjamiyatlarni birlashtirish;
- Tibbiyot turizmining barqaror rivojlanishidagi muammolar va istiqbollarni muhokama qilish;
- Ilg'or ilmiy va amaliy bilimlar almashish;
- O'zbekistonni xalqaro darajadagi tibbiyot turizmi markazi sifatida qo'llab-quvvatlash.

ISHTIROK ETISHGA TAKLIF ETILADI:

Tadqiqotchilar, yosh olimlar, doktorantlar, professor-o'qituvchilar, tibbiyot muassasalari, turizm tashkilotlari, hokimiyat organlari vakillari, shuningdek, ixtisoslik yo'nalishlari talabalari.

KONFERENSIYA ISH TILLARI: o'zbek, rus va ingliz.



KONFERENSIYANING ASOSIY YO'NALISHLARI:

1. Tibbiyot turizmi: innovatsiyalar va trendlar

- Tibbiy turizmni rivojlantirishda raqamlashtirish va sun'iy intellektning o'rni;
- Tibbiy muolajalar va tashxislashda texnologiyalarni rivojlantirish;
- Shaxsiylashtirilgan tibbiyot va uning tibbiy turizmdagi o'rni;
- Tibbiy xizmatlarni raqamlashtirish va teletibbiyot.

2. Sog'lomlashtirish turizmi va kasalliklarning oldini olish

- Kasalliklarning oldini olishga ixtisoslashgan kurortlar va markazlar;
- Sog'lomlashtirishning terapevtik usullari: an'anaviydan tortib yuqori texnologiyalargacha;
- Sog'lomlashtirishda fitnes va doimiy dam olishning roli;
- Wellness-turizmining zamonaviy yo'nalishlari va rivojlanish istiqbollari;
- Keksalar uchun mo'ljallangan tibbiy turizm.

3. Tibbiyot va sog'lomlashtirish turizmidagi ekologik yondashuv

- Ekoturizm – tibbiyot va sog'lomlashtirish turizmining bir qismi sifatida;
- Sanoatdagi barqaror rivojlanish va ekologik mas'uliyat;
- Ekologiya va tabiiy omillarning inson salomatligiga ta'siri;
- Ekologik toza kurortlar va sanatoriyalar yaratish.

4. Tibbiyot turizmi uchun ta'lim va kadrlar

- Tibbiyot turizmi sohasi mutaxassislari uchun ta'lim dasturlari;
- Ekologiya va salomatlik bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash;
- Turizm va tibbiyot sohalaridagi xodimlar uchun professional tayyorgarlik talablari.

KONFERENSIYA DOIRASIDAGI KO'RGAZMA:

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya doirasida tibbiyot turizmi sohasida innovatsion xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotlar, klinikalar, sanatoriyalar va kompaniyalar ishtirokida ixtisoslashtirilgan ko'rgazma tashkil etiladi.

Ko'rgazmaning maqsadi - tibbiy turizm sohasidagi zamonaviy yutuqlarni namoyish etish, tajriba almashish, ishbilarmonlik aloqalarini rivojlantirish va qo'shma loyihalarni ilgari surishga ko'maklashishdan iborat.

TASHKILOTCHILAR:

- O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi
- O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi
- O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi
- Turizmni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti
- MGIMO Toshkent filiali

KONFERENSIYA HAMKORLARI:

- Toshkent viloyati hokimligi
- Toshkentdagi Singapur menejmentni rivojlantirish instituti
- Alfraganus universiteti
- Qo'qon universiteti
- Qarshi davlat universiteti
- Tojikiston tadbirkorlik va turizm xalqaro universiteti
- Emu universiteti
- Tibbiyot tashkilotlarini litsenziyalash va akkreditatsiyalash markazi davlat muassasasi
- "Tibbiyot tashkilotlari assotsiatsiyasi" yuridik shaxslarining birlashmasi
- Science & Innovation ilmiy jurnali

KONFERENSIYA SANALARI: 2025-yil 10–12-noyabr

MATERIALLARNI QABUL QILISH MUDDATI:

2025-yil 1-noyabrgacha

O'TKAZILISH JOYI: MGIMO Toshkent filiali (Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek shoh ko'chasi, 47-uy)

RO'YXATDAN O'TISH VA MATERIALLARNI TOPSHIRISH UCHUN:

- Konferensiyada ishtirok etish **bepul**.
- Ro'yxatdan o'tish uchun sayt: <https://tridm.uz/medical/>
- **Materiallarni topshirish uchun:**
Gordeyeva Yelena Anatolevna — +998 50 511 25 52
helena-gordeeva@inbox.ru
Xaydaraliyeva Asila — +998 50 055 17 05
Telegram: @Science_qabul2
- info@scientists.uz

MATERIALLARNI RASMIYLASHTIRISH TALABLARI:

Materiallar MS Word-2003, 2007 (DOC, DOCX) formatida bo'lishi lozim, shrift — Times New Roman, o'lchami 14, abzas — 1 sm, satrlar oralig'i — 1, sahifaning har tomonidan 2 sm. Tezis hajmi (jadval, rasm, chizma va internet manbalari bilan birga) kamida 6–8 bet, tezis teksti — 3 bet bo'lishi kerak.

Familiya, ism, otasining ismi (to'liq), ilmiy daraja, ilmiy unvon, lavozimi, oliy ta'lim muassasasi yoki tashkilot nomi — birinchi sahifaning o'ng yuqori burchagida; tezis sarlavhasi uchta tilda — markazda, **qalin shrift**da; asosiy matn; alifbo tartibida foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati. Manbalarga havolalar asosiy matnda shakl (Vudman, 2015. 312-b) bo'yicha keltirilishi kerak. Faqat muallif tomonidan tahrir qilingan va tashkiliy qo'mita tomonidan tavsiya etilgan tezislar chop etiladi. Taqdim etilgan tezis mazmunining ishonchliligi uchun muallif to'liq javobgardir. Konferensiya materiallari to'plami **PDF** formatida mualliflarga taqdim etiladi.

KONFERENSIYA MATERIALLARINI INDEKSLASH:

Konferensiyaga qabul qilingan har bir tezis Polshaning **Index Copernicus**, Yevropaning **Zenodo** va **Open Aire** xalqaro bazalarida, **ilmiyanjumanlar.uz** platformasiga joylashtiriladi va **Google Scholar** xalqaro qidiruv tizimida indekslanadi.

Har bir tezisga alohida **DOI** raqami beriladi.

Har bir muallifga **elektron sertifikat, indekslash sertifikat** va **tezisning indekslangan PDF nusxasi** taqdim etiladi.

Konferensiya materiallari elektron va bosma ko'rinishda chop etiladi.

NASHR TO'LOVI:

O'zbekistonlik ishtirokchilar uchun: **200 000 so'm**, boshqa davlatlardan bo'lgan ishtirokchilar uchun: **bepul**.

To'lov rekvizitlari:

Hisob raqami: **20208000105517058001**

Plastik karta: **9860 0401 0487 3951**

Qabul qiluvchi: **Raxmatullayeva Gulirano**

Eslatma: To'lov amalga oshirilganda quyidagini ko'rsating:

“Tezis nashri uchun to'lov – [Muallifning to'liq ismi]”

hamda to'lov kvitansiyasi nusxasini tashkiliy qo'mitaga yuboring.

Sizning O'zbekistonda tibbiy turizmni rivojlantirishdagi ishtirokingiz va ilmiy-amaliy hissangizdan mamnunmiz.

Hurmat bilan, konferensiya tashkiliy qo'mitasi!

